Qabul qilindi: 19-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 25-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 05-noyabr 2026-yil

O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI IJTIMOIY MULOQOT VA IJTIMOIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA

Ilhomjon Ibrohimovich Kamolov

O‘zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tashkiliy ishlar bo‘limi mudiri

Toshkent, O‘zbekiston

Telefon nomer: +99890-062-50-50

E-mail: icamolove@yandex.com



Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda globallashuv va modernizatsiyalash jarayoni shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda “milliy rivojlanish”, “milliy modellar”, “siyosiy modernizatsiya”, “fuqarolik jamiyati” paradigmalarining metodologik asoslariga oid ijtimoiy sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi konseptual qarashlar hamda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarning roli, ahamiyati va evalyutsiyasini o‘rganish borasida ilmiy-nazariy fikrlar va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘z: kasaba uyushmasi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy sheriklik, dialektika, davlat, jamoa shartnomasi.

Ключевые слова: профсоюз, социальное общество, социальное партнерство, диалектика, государство, коллективный договор.

Keywords: trade union, social society, social partnership, dialectics, state, collective agreement.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan xalqaro va milliy mehnat standartlarini joriy etishga ko‘maklashish sohasidagi ishlar ham tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Kasaba uyushmalari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy

etish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Hozirda boshlang‘ich tashkilotlarni kasaba uyushmalari tizimida elektron ro‘yxatdan o‘tkazish ishlari olib borilmoqda. Shu maqsadda “O‘zbekiston kasaba uyushmalari tizimida kompleks integrallashgan axborot tizimi yordamida boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish va qayd qilish, a’zolar reestrini yuritish tartibi” hamda “Jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvlarini tuzish, kelishish, qayd qilish hamda ularning reestrini yuritish tartibi” loyihalari ishlab chiqildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbuslari bilan mamlakatimizda barcha jabhalarda bo‘lganidek, ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat munosabatlari sohalarida ham ko‘plab muhim o‘zgarishlar va tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi asosida qonunosti hujjatlarini mazkur kodeksga moslash maqsadida ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qaytadan ko‘rib chiqilib, tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan qabul qilindi, ayrim normalar bo‘yicha yangi hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, 2024 yilning o‘zida Xalqaro mehnat tashkilotining 5 ta Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Jamoa kelishuvlarini xabardor qilish tartibida ro‘yxatga olish, Alohida hollar uchun xodimlarning o‘rtacha ish haqini hisoblab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari, Ijodiy ta’tillar berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomlar, Alohida xususiyatga ega bo‘lgan ishlardagi qisqartirilgan ish kuni belgilanadigan xodimlar ro‘yxati, Masofadan turib ishlovchi xodim bilan yozma mehnat shartnomasining namunaviy shakli, O‘ta zararli va o‘ta xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqtining cheklangan davomiyligi, Xodim va yakka tartibdagi tadbirkor o‘rtasidagi yozma mehnat shartnomasining namunaviy shakli, Uy ishchisi bilan tuziladigan mehnat shartnomasining namunaviy shakli kabi normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlandi.

Ma’lumki, so‘nggi 7-8 yil davomida muhtaram Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan keng ko‘lamli va tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur jarayonlarda O‘zbekiston kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etmoqda. Amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar natijasida kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik yangi bosqichga ko‘tarildi. Kasaba uyushmalarining xodimlar mehnat huquqlarini himoyalash, mehnat qonunchiligini takomillashtirish va Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarini ratifikatsiya qilishda

hamkorlik yo‘nalishlaridagi faoliyati sezilarli darajada oshdi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ijtimoiy muloqot va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, mazkur yo‘nalishda mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha uch tomonlama komissiya ishida faol ishtirok etib kelmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Ish beruvchilar Konfederatsiyasi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo‘yicha 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan Bosh jamoa kelishuvi amal qilmoqda. Mazkur hujjat asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida 14 ta hududiy jamoa kelishuvi, tarmoqlarda respublika miqyosida 103 ta tarmoq jamoa kelishuvi, bevosita korxona va tashkilotlarda 118 mingta jamoa shartnomasi qabul qilingan bo‘lib, ular orqali mehnatkashlar manfaatlari himoya qilib kelinmoqda. Xususan, qator tarmoqlarda jamoa shartnomasi ish haqi miqdorini oshirishning samarali vositasiga aylangan. Jumladan, respublika bo‘yicha 24 mingdan ortiq korxona va tashkilotda Jamoa shartnomalari asosida yagona tarif setkasida belgilangan razryadlar koeffisienti ko‘tarilgan bo‘lib, bu orqali 1 mln. nafardan ortiq xodimning ish haqi oshirilishiga erishildi.

Tuzilgan jamoa shartnomalarining barchasida xodim bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishdan avval albatta kasaba uyushma qo‘mitasining roziligini olish talabi kiritilgan. Jamoa shartnomalariga kiritish orqali ish vaqti va dam olish vaqtini tartibga solish borasida aksariyat korxona va tashkilotlarda asosiy uzaytirilgan va qo‘shimcha ta’tillar o‘rnatilgan. Natijada har yili 2,5 mln. nafardan ziyod xodim asosiy uzaytirilgan,

3,5 mln. nafardan ortiq xodim esa yillik qo‘shimcha ta’tillardan foydalanmoqda.

2024 yilda kasaba uyushmalari inspeksiyalari tomonidan 4 ming 397 ta tashkilotda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda kelib tushgan 6 ming 105 ta murojaatni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra jami 106 ming 19 nafar shaxsning huquqlari tiklanib, xodimlar foydasiga 108 mlrd. 533 mln. so‘mdan ortiq mablag‘ undirib berildi. Shuningdek, Kasaba uyushmalari inspektorlari sudlarda va mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi boshqa organlarda xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida

1 ming 292 marta vakil sifatida ishtirok etdilar.

Kasaba uyushma faollari 2024 yilning 9 oyi davomida jami 10 ming 385 ta korxona va tashkilotda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga rioya etilishi yuzasidan jamoatchilik monitoringini amalga oshirdilar. Shuningdek, kasaba uyushmalari tomonidan 10 ming 81 ta korxona, tashkilot va muassasada qariyb 1 mln. 73 ming nafar xodimga to‘lanayotgan ish haqi ularning malaka darajasiga muvofiqligi bo‘yicha monitoringlar o‘tkazildi. O‘rganishlar natijasida 4 ta holatda 4 nafar xodimga ish haqi ularning malaka darajasiga muvofiq to‘lanmaganligi aniqlanib, ular foydasiga 12 million so‘mdan ortiq mablag‘ to‘lab berilishiga erishildi. Homilodorlik va tug‘ish nafaqalarini to‘lash hamda homilador ayollar mehnat huquqlarini ta’minlash borasida amalga oshirilgan jamoatchilik nazorati natijasida sog‘liqni saqlash tarmog‘ida mehnat qilayotgan 6 nafar xodimga nisbatan qonun talablari buzilganligi aniqlanib, ularning huquqlari tiklandi.

“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” dasturi doirasida jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali 2024 yilning yanvar-noyabr oylarida 216 ming 18 nafar fuqaro va 81 ming 272 ta oilaga 252,5 mlrd. so‘mdan ortiq ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatildi.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidan kelib chiqqan holda 2025 yilda kasaba uyushmalari oldida turgan asosiy ustuvor vazifalar sifatida:

-ijtimoiy-mehnat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan kasaba uyushmalarining taklif va xulosalarini kiritishning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish;

jamoa kelishuvlari va shartnomalarini tuzish va ro‘yxatga olish bo‘yicha axborot tizimini ishga tushirish;

yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida kasaba uyushmalarining dasturlarini ishlab chiqish, ularda yoshlarni kasaba uyushmalariga jalb etish, ishlayotgan yoshlarning mehnat huquqlarini himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ko‘zda tutish yo‘nalishlarida aniq va maqsadli vazifalarni belgilash;

davlat organlari va tashkilotlarida jamoatchilik nazorati doirasida Genderga oid auditni o‘tkazish amaliyotini yanada kengaytirish;

“Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika komissiyasi” faoliyatini tizimli davom ettirish,

Prezidentimizning 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ta’kidlagan “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak” degan so‘zlaridan kelib chiqib, har bir kasaba uyushmasi tashkilotida madaniy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish kabi usutvor vazifalar belgilandi.

Bundan tashqari, kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladigan sport tadbirlarining qamrovi oshirilishi, professional sportni rivojlantirishga ko‘maklashish sohasidagi ishlar 2025-yilda ham tizimli ravishda davom ettirilishi, Federatsiya tasarrufidagi mavjud sog‘lomlashtirish maskanlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangilarini barpo etish, Bolalarni dam oldirish va sog‘lomlashtirishni tashkil etish departamenti, uning hududiy bo‘linmalari faoliyatini yanada takomillashtirish choralari ko‘rilishi qayd etildi.

Bob bo‘yicha xulosa.

Qisqa muddatda mamlakatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar yo‘nalishlardagi taraqqiyot sur’atlari keskin o‘zgarib, yangicha sifat va mazmun kasb etib, beqiyos qudrat va shiddatga ega bo‘lib bormoqda. Eng muhimi, yurtimizda davlat va jamiyat tayanchi bo‘lgan xalqimizga, uning bunyodkorlik salohiyatiga munosabat tubdan o‘zgardi. Inson, uning erkin va farovon hayoti barcha islohotlar markazida turadigan bosh maqsadga aylandi.

Inson qadri yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan ishlar davlatimiz va jamiyatimizni taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga olib chiqdi. Yangi O‘zbekistonning bu boradagi yutuqlari bugun xalqaro miqyosda ham tan olinib, yuksak baholanyapti. Tabiiyki, olib borilayotgan yangilanish va o‘zgarishlarda kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib, islohotlarni qo‘llab-quvvatlagan holda turli soha xodimlarining ijtimoiy iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash borasida xizmat qilmoqda. Albatta, yutuqlar qatorida ushbu institusional tuzilmani yanadada takomillashtirish borasida yuqoridagi bob paragraflarida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib biz quyidagilarni taklif etamiz.

1. Kasaba uyushmalari va boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkilotlari faoliyatini

modernizatsiya qilish:

Kichik, o‘rta va xususiy tadbirkorlik kasaba uyushmalarining shakllanishi bevosita boshlang‘ich tizim faoliyatini tubdan yangi bosqichga ko‘tarish orqali amalga oshirish.

Boshlang‘ich kasaba uyushmasi faoliyatini takomillashtirishga, ular bilan yangicha ishlash tizimiga o‘tish;

Boshlang‘ich kasaba uyushmasi faoliyatini takomillashtirish uchun turli loyihalar ishlab chiqish;

Kasaba uyushmalarining jozibadorligini oshirish: A’zolarga real foyda keltiradigan dasturlarni ishlab chiqish (masalan, huquqiy yordam, malaka oshirish kurslari, Imtiyozli kredit va ipoteka dasturlarini kasaba uyushmalari orqali taqdim etish, “Referal tizimi” joriy qilish: mavjud a’zolar yangi a’zolarni jalb qilsa, rag‘batlantirish tizimini yaratish).

2. Mehnat nizolarini hal qilish bo‘yicha tezkor mexanizm yaratish

Har bir korxonada “Ishchi shikoyat markazi” tashkil qilish va uni kasaba uyushmalari bilan bog‘lash.

Xodimlar anonim ravishda kasaba uyushmalariga murojaat qilishi uchun maxsus mobil ilova yaratish.

Ish beruvchilar bilan nizolarni hal qilish uchun “Tezkor arbitraj guruhi” tuzish va 7 kun ichida muammolarni hal qilish tizimini joriy etish.

3. Kasaba uyushmalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish

A’zolik badallarining bir qismini investitsiya yoki biznes loyihalariga yo‘naltirish.

Tarmoq kasaba uyushmalarining o‘ziga tegishli dam olish maskanlari, sanatoriylar va o‘quv markazlarini yaratish.

4. Raqamlashtirish va innovatsiyalar

Onlayn platformalar yaratish: A’zolar uchun elektron murojaat qilish, maslahat olish va shikoyatlar yuborish imkoniyatini ta’minlovchi tizimlar yaratish.

Axborot kompaniyalarini rivojlantirish: Raqamli texnologiyalar yordamida kasaba uyushmalarining faoliyatini yoritish va targ‘ib qilish.

Kasaba KIAT platformasini rivojlantirish orqali har bir kasaba uyushma a’zosi foydalanishi mumkin bo‘lgan mobil ilovalar yaratish.

5. Xalqaro tajribani o‘rganish va qo‘llash

Xalqaro kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilish: Ilg‘or tajribalarni o‘rganish va mamlakat sharoitiga moslashtirish.

Grant va loyihalar jalb qilish: Xalqaro tashkilotlardan moliyaviy va metodik yordam olish orqali kasaba uyushmalarining salohiyatini oshirish.

